SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-iyul | 245-8-117-Q/24 | Termiz tuman hokimligi

Tuman hududidagi transport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rikdano‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17- moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda —Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar jimoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlari soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganligiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n bir yildan o‘n to‘rt yilgacha (o‘n to‘rtinchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n besh yil va undan ortiq bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) bir yilda bir marta;

tirkamalar ko‘rikka transport vositasi shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta 1-mart 30-iyunda;

ikkinchi marta 1-sentyabr 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi joriy yilning 1-martidan 30-iyungacha o‘tkazilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5.Trasnport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasirahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikni o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi,

markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transportvositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligini tekshirishni ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari yuridik shaxslar tomonidan mazkur Nizomga muvofiqo‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumadagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125- son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori 3-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkaziliishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 28-dekabrdagi 623-8-117-Q/22-son “Tuman hududidagi transport vositalarini 2023-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Janub quyoshi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**

Termiz tuman hokimining
2024-yil 24-iyuldagi
245-8-117-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi :

T.Mamarayimov	-	Termiz tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruxi katta inspektori

Komissiya a’zolari:

Y.Nomozov	-	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik hodimi
I.Xaitov	-	tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi
Lavozimiga ko‘ra	-	Tuman avtomotohavaskorlar ko‘ngilli jamiyati a’zosi *(kelishuvga asosan)*

Komissiya kotibi:

S.Nortajiyev	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXG MXMKCH inspektori katta serjant

Termiz tuman hokimining
2024-yil 24-iyuldagi
245-8-117-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish ўтказиш

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xoʻjalik va muassasalar nomi	Texnik koʻrik oʻtkazish kunlari	Texnik koʻrik oʻtkazish vaqti	Texnik koʻrik oʻtkaziladigan joy	Transportlar soni
1	Tuman DSENM	03.03.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	2
2	S.Sattorov nomli fizoterapeya shifoxonasi	06.04.2024	9:00-17:00	Garaj	3
3	Termiz мarvaridi sanatoriyasi MCHJ	15.03.2024	9:00-17:00	Garaj	4
4	Amu Surxon ITXBKNSE	24.03.2024	9:00-17:00	Garaj	39
5	Termiz kuruvchi standart KTXK	10.03.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	10
6	Parrandachilik f-si	06.03.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	35
7	Termiz Aeroporti	06.04.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	33
8	Janub Avtotrans	13.03.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	10
9	Fayz xususiy firmasi	24.03.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	6
10	Navruz naslchilik chorv.majmuasi	14.04.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	4
11	Janub standart par. Chorv. kompleksi	20.03.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	23
12	Termiz t. moliya bulimi	23.03.2024	9:00-17:00	YXXG	1
13	Avtotexservis Namuna MCHJ	30.03.2024	9:00-17:00	YXXG	4
14	Dilnur Surxon x/k	12.05.2024	9:00-17:00	YXXG	4
15	Yangixayot Ayritom SICHK MCHJ	22.05.2024	9:00-17:00	YXXG	5

16	Parvoz Omad Termiz Davl ta’m MSK	21.05.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	4
17	Xujabekxon x/k	26.05.2024	9:00-17:00	YXXG	6
18	DSI	26.05.2024	9:00-17:00	YXXG	1
19	Jayxun Zang Irigator	22.05.2024	9:00-17:00		2
20	Termiz komf.stroy MCHJ	24.05.2024	9:00-17:00	YXXG	2
21	Neft termiz MCHJ	24.05.2024	9:00-17:00	YXXG	3
22	Al.xakim at termiziy	27.05.2024	9:00-17:00	YXXG	2
23	Namuna Xuja UCHSICHK	27.05.2024	9:00-17:00	YXXG	4
24	Aloka avtotr.MCHJ	27.05.2024	9:00-17:00	YXXG	2
25	Ravon Istiklol KTICHXK	29.05.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	2
26	Surxon Termiz Muxrid MCHJ	31.05.2024	9:00-17:00	YXXG	12
27	Kosim Kamol MCHJ	31.05.2024	9:00-17:00	YXXG	2
28	Fazliddin Muxiddin ogli x/k	31.05.2024	9:00-17:00	YXXG	4
29	Zarkaynar Kimyo MCHJ	31.05.2024	9:00-17:00	YXXG	1
30	Bekzod kichik korxonasi	31.05.2024	9:00-17:00	YXXG	2
31	Termiz Ozik ovkat savd	31.05.2024	9:00-17:00	YXXG	3
32	Surxon Sharob savdo x/k	02.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
33	Iroda Xayf GSICHXK	02.06.2024	9:00-17:00	YXXG	4
34	Jasurbek x/dorixona	02.06.2024	9:00-17:00	YXXG	7
35	Davr kup torm x/k	02.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
36	Moxitob Mubin MCHJ	02.06.2024	9:00-17:00	YXXG	4
37	Termiz tum kungilli Avtomotoxavaskorl maktabi	02.06.2024	9:00-17:00	YXXG	5
38	Kaxor turon MCHJ	05.06.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	2

39	Saidjon Muxammadjon muzkaymoklari MCHJ	05.06.2024	9:00-17:00	YXXG	8
40	Surxon LAAZ Ta’minot	05.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
41	Zangiota Nazarbek trans MCHJ	05.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
42	Sd.Vil.tibbiy texnik xizmat kursat MCHJ	05.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
43	Nodir trans kurilish	05.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
44	Surxon tongi UCHSXK	06.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
45	Forvard VG MCHJ	06.06.2024	9:00-17:00	YXXG	4
46	Movaraunnaxr Surxon MCHJ	06.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
47	Angor Melirativ KTICH	06.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
48	Rabbim x/f	06.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
49	Mavlyuda va Umid shirinliklari MCHJ	07.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
50	Maktabgacha ta’lim bul	07.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
51	Ixtisosl sanat maktabi	07.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
52	Diyor farovon xayot x/k	07.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
53	Dilorom Limonzor x/k	07.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
54	Termiz tuman xokimiyat	07.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
55	Zafar kurilish Termiz	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
56	OOO Ok Oltin sut	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
57	Rashid Ugli Maxtimkul	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
58	Termiz tumani KSXB	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
59	Ok Oltin sut invest	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
60	Finland Impex MCHJ	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
61	Termiz Agro Fish Eksp	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2

62	Namuna Mirzotepa x/k	09.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
63	Zartepa Grand o/k	12.06.2023	9:00-17:00	YXXG	1
64	Yangiarik Gavxari MCHJ	12.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
65	Surxon chorva invest	12.06.2024	9:00-17:00	YXXG	7
66	Ter.Vaunes.Servis MCHJ	12.06.2024	9:00-17:00	YXXG	5
67	Baxrom Universal qur MCHJ	14.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
68	Urta osiyo Termtrans MCHJ	14.06.2024	9:00-17:00	YXXG	5
69	Avtotrans Servis Kaxr MCHJ	14.06.2024	9:00-17:00	YXXG	4
70	Namuna tezkor qurililish	15.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
71	Termiz tijorat MCHJ	15.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
72	Usta binokor kuruvchi	15.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
73	Ixtiyorbek x/k	15.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
74	Afg‘oniston fuqor o‘qitish markazi	15.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
75	Termiz kargo sentre MCHJ	15.06.2024	9:00-17:00	YXXG	4
76	Jasurbek x/k	16.06.2024	9:00-17:00	Garaj	2
77	Surxondaryo TEK MCHJ	17.06.2024	9:00-17:00	Garaj	3
78	Surxon yul	17.06.2024	9:00-17:00	Garaj	2
79	Termiz TYXTFP	17.06.2024	9:00-17:00	Garaj	9
80	Davron Namuna f/x	19.06.2024	9:00-17:00	YXXG	1
81	Aziz f/x	19.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
82	Sultonbek f/x	19.06.2024	9:00-17:00	YXXG	3
83	Ergash polvon f/x	19.06.2024	9:00-17:00	YXXG	2
84	Norxamid bobo f/x	19.06.2024	9:00-17:00	YXXG	4

85	Sobir avto trans mchj	27.06.2024	9:00-17:00	Tashkilot xududida	12

Komissiya raisi,
Termiz tuman IIB YXXG katta inspektori leytenant **T.Mamarayimov**